

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-5/4

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

Бош муҳаррир:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир хайати:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.
Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.
Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович,
т.ф.д., проф.

Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.

Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.

Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.

Бабаджанов Хушнуд, ф.ф.н., проф.

Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.

Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.

Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.

Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.

Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.

Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.

Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.

Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.

Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.

Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.

Каримов Улугбек Темирбаевич, DSc

Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.

Кутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.

Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.

Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.

Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.

Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.

Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.

Пазиров Абдуваеит, б.ф.д., проф.

Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.

Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.

Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д.,

проф.

Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.

Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.

Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.

Сапарбаева Гуландам Машиариповна, ф.ф.ф.д.

Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.

Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.

Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.

Сотиров Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.

Тожибаев Комилжон Шаробитдинович,

б.ф.д., академик

Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.

Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.

Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.

Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.

Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.

Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.

Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.

Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.

Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.

Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Худайбергенова Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№5/4 (101), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. — 294 б. — Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими — Хоразм Маъмун академияси

Saidova M. Pragmatic analysis of linguistic humor	150
Saidova R.A. Adabiyotshunoslikda semiotik tahlilning o'rni	152
Saidova Z.Kh. Lexico-semantic classification of phraseological units and their relation to the lexical layer	154
Saparbayeva G.M., Radjapova I.E. Badiiy asarda maxsus leksik birliklar va ularning turlari	157
Sativoldiyeva D. Leksik-semantik usul bilan fe'l va sifatlardan toponimlar yasalishi hamda ularning motivatsion-nominatsion tavsifi	159
Saydaliyeva M.U. Matn stilistikasi va uning asoslari	162
Sharofova D.F. Linguacultural analysis of the "concept" and "hospitality" in phraseological units	165
Sobirova F.U. Constructions and collostructional analysis	167
Tashmatova N.Ch. "Gulshan ul-asror" asari leksikasining genetik tahlili	170
Temirova H.B. The role of negative transfer in comparative and contrastive phonetics	173
Turaeva Sh.M. O'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning antropopragmatik tadqiqi	176
Turakulova D.M., Kenjayeva D.Sh. The role and development of concept in linguistics	178
Turdimurodov S. Leksik sinonimlar va evfemik darajalanuvchi sinonimlar qiyosi	181
Ubaydullayeva M.O. O'zbek siyosiy diskursida gender dinamikasining namoyon bo'lishi: Shavkat Mirziyoyev nutqlari asosida	184
Usmonov G'M. Fitrat asarlarida inson va jamiyat munosabatlarini ifodalovchi so'z va iboralarning tarjimada saqlanishi	186
Uzakova L. O'zbek va ingliz tillarida to'y bilan bog'liq leksik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi	189
Uzoqboyeva R.A. Comparative analysis of national world picture in Uzbek and English language	191
Xalilova D.J. O'zbek detektiv nasrida jinoyat va jazo muammosi hamda syujet sxemasi	193
Xamidova N.Yu. Fransuz tilini xorijiy til sifatida o'rganilishi va uning tarjimasiga doir ayrim jihatlar	197
Xamidova S.B. Ingliz va o'zbek tillarida paradoksning ma'no hosil qilish potentsiali	199
Xaydarova G.X. Maqollarning umumbashariylik xususiyatlari	202
Xodjayeva D.I., Qosimova Sh.Sh. Tilshunoslikda transpozitsiya hodisasi va uni tadqiq etish	204
Xoshimova N.A. Gender farqining ifoda masalasi	207
Yunusova A.A. The theory of language personality and the human factor in language	208
Yusupova M.A., Baltayeva N.T., Baltayev M.B. Ingliz va o'zbek tillarida sinonim so'zlarining o'xshash jihatlarining tahlili	211
Yusupova Z. Tarjimada noverbal kommunikativ komponentlarning lingvokulturologik xususiyatlarini saqlash strategiyasi	213
Zokirova D.B. Analysis of the means of stylistic promotion in the advertising text	216
Абдюжанова В.Х. Тахририятда муаллиф қўлёмаси билан ишлашнинг мантикий асослари	218
Амирова Н.С. Моделирование ситуации зрительного восприятия в работах турецких ученых: история и теория вопроса	222
Аюпов Т.Р. Философские взгляды востока в ранней прозе В. О. Пелевина	225
Буриева Ф.Н. Усмон Азим ижодида оқ ва эркин шеър шакллари, вазн имкониятлари	228
Гафуров Б.З. Информативность текстов медицинской рекламы	233
Исмаилова Л.Х. Юртимизда туризмга оид матнларнинг шаклланиш тамойиллари	236
Қурбонов Н.Б. Объектларнинг образли номланишини тадқиқ этишнинг илмий-назарий ва илмий-амалий тамойиллари	238
Махмудов Р., Бобожонова Х. Форс тили орқали кириб келган историзмлар	241
Муминова А.А., Галямова А.Р. Категория побудительности в рекламном тексте	244
Муминова Г. Особенности художественного мира В.С. Маканина	246
Нафасова В.Т. Ранг компонентли гидронимлар тадқиқи	249
Ниязова М.Б. Обучение терминологической лексике специальности обучаемого	252
Одилова Г. Ўзбек глуттоник дискурсида қозон, ўчок, дастурхон архитипларини қайта яратиш муаммоси	254
Расулова А., Халилова М. Матн қурилишининг услубий асослари ҳақида	258
Рахматова О.К. К проведению лингвопрагматического анализа современного речевого дискурса в сопоставлении русского и узбекского языков	259
Рахмонова Д.М. Тавалло ижодида ижтимоий-тарихий шароитнинг ўрни	261
Рузиева С.Х. Давид Митчел глазами литературных критиков	265
Садикова Ш.Т., Курбанова Н.Р. Идеи индивидуализма в «Профессор»е Шарлотты Бронте	267
Тўхтабоева М. Боту шеърлятидаги такрорий бирликларнинг лингвопоэтик хусусияти	270
Хамидов М. Ўзбек тилида селекция ва уручиликка оид бирикма терминларнинг ҳосил бўлиш моделлари	274
Хасанова Р.Й. Аннемарие Шиммел шахсияти ва адабий меросининг назарий тадқиқи	277
Хасанова Р.Й. Шарқ маданиятининг Аннемарие Шиммел ижодида акс этиши	279
Худайберганава М.М. Ўзбек ва француз болалар рекламаларининг лисоний таснифи	281
Шохобутдинова Д.М. Комизмнинг психологик механизми	283
Элова У.Р. Шеъринг достонининг лингвостилистик ва лингвомаданий жиҳатлари	286
Эргашева З.А. Каузаллик маъносига эга бўлган мураккаб предлоглар таркибидаги семантик ўзгаришлар	288
Юсупова М.Б. Миллат онгининг мақол ва маталарда акс этилиши	291

“GULSHAN UL-ASROR” ASARI LEKSIKASINING GENETIK TAHLILI**N.Ch.Tashmatova, o'qituvchi, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent**

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Xorazmda yashab ijod etgan mumtoz adabiyotimiz yetuk namoyondalaridan Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” masnaviysida ifodalangan o'z qatlamga oid so'zlar tasnif va tahlil etilgan. Tilning o'z qatlami har bir tilning shakllanish va taraqqiyot bosqichlarida o'z ichki imkoniyatlari asosida yuzaga kelgan so'zlardan tashkil topadi. Tilshunoslikda leksikaning ichki imkoniyatlar yordamida rivojlanishida quyidagi hodisalar asosiy omil sanaladi: 1) ichki manbalar orqali so'z yasash yo'li bilan leksikaning boyishi; 2) eskirgan, tarixiy va umuman eski obidalarda bo'lgan lug'aviy birliklar asosida leksikaning boyishi; 3) adabiy til leksikasining dialektik so'zlar hisobiga boyishi.

Kalit so'zlar: turkiy til, o'zbek tili, so'z, o'z qatlam, lug'aviy birlik, masnaviy, leksika.

Аннотация. В данной статье были классифицированы и проанализированы слова одного из представителей нашей классической литературы, жившего в Хорезме в конце XIV начале XV веков. Собственный слой языка составляют слова, сформированные на основе его внутренних возможностей на этапах становления и развития каждого языка. В языкознании основными факторами развития словарного запаса за счет внутренних ресурсов считаются следующие явления: 1) обогащение словарного запаса за счет создания слов за счет внутренних ресурсов; 2) обогащение лексики на основе лексических единиц, встречающихся в устаревших, исторических и вообще старых памятниках; 3) обогащение словарного запаса литературного языка за счет диалектных слов.

Ключевые слова: турецкий язык, узбекский язык, слово, собственный слой, лексическая единица, маснави, лексика.

Abstract. In this article, the words related to the own layer expressed in the masnavi "Gulshan ul-asrar" by Heydar Khorazmi, one of the representatives of our classic literature, who lived in Khorezm in the late XIV and early XV centuries, are classified and analyzed. The language's own layer consists of words formed on the basis of its internal capabilities during the stages of formation and development of each language. In linguistics, the following phenomena are considered the main factors in the development of the lexicon using internal resources: 1) enrichment of the lexicon by creating words through internal resources; 2) enrichment of the lexicon on the basis of lexical units found in obsolete, historical and generally old monuments; 3) enrichment of the lexicon of the literary language at the expense of dialectical words.

Key words: Turkish language, Uzbek language, word, own layer, lexical unit, masnavi, lexicon.

Ma'lumki, tilning lug'at tarkibi murakkab rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan. Shu bois, til leksikasining tarixiy shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini bilish uchun lug'at tarkibidagi so'zlarni tarixiy-etimologik nuqtai nazardan o'rganish, ularni etimologik qatlamlarga ajratish zarur. Bu, albatta, til lug'at tarkibini ilmiy tushunish, ilmiy tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Til lug'at tarkibini tarixiy-etimologik jihatdan, ya'ni so'zlarning genetik manbalariga ko'ra tadqiq etish o'zbek tilining qanday qardosh va noqardosh chet tillar bilan aloqada bo'lgani, mazkur tilda qaysi tillarning ta'siri mavjudligini aniqlashga ko'maklashadi. Pirovardida, bunday izlanishlar o'zbek tili so'z boyligi, grammatik qurilishining tarixiy yo'llarini anglashda nihoyatda muhimdir [3]. Binobarin, tilning leksik tarkibini geneologik manbalariga muvofiq guruhlash, ilmiy jihatdan tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Zero, tildagi leksik qatlamlarni lingvistik tadqiq etish leksik-semantik taraqqiyot qonuniyatlarini belgilashda juda muhimdir. Zotan, leksika tarix, madaniyat, fan va xalq ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti kabi sohalar bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ilmiy tahlilda ularni hisobga olmasdan turib, so'z ma'nolarining o'zgarish manbalari va sabablarini aniqlash mushkul [13].

O'zbek tilshunosligida leksik qatlamlar yuzasidan bir necha ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada [6], Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” masnaviysi leksikasi geneologik jihatdan maxsus o'rganilmagan. Shuning uchun ham tadqiqotimizda obida so'z boyligining geneologik xususiyatlarini yoritishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Tilning o'z qatlami har bir tilning shakllanish va taraqqiyot bosqichlarida o'z ichki imkoniyatlari asosida yuzaga kelgan so'zlardan tashkil topadi. Tilshunoslikda leksikaning ichki imkoniyatlar yordamida rivojlanishida quyidagi hodisalar asosiy omil sanaladi: 1) ichki manbalar orqali so'z yasash yo'li bilan leksikaning boyishi; 2) eskirgan, tarixiy va umuman eski obidalarda bo'lgan lug'aviy birliklar asosida leksikaning boyishi; 3) adabiy til leksikasining dialektik so'zlar hisobiga boyishi [17].

O'z qatlam deganda aslan shu tilga tegishli bo'lgan leksemalar va shular asosidagi yasallishlar, shuningdek, o'z affiks yordamida boshqa tillardagi so'zlardan hosil qilingan leksemalar tushuniladi [11]. Shunga ko'ra, "Gulshan ul-asror"da qo'llanilgan o'z qatlamga doir so'zlarni quyidagicha guruhlash mumkin: a) tub turkiy so'zlar; b) tub turkiy so'zlar orqali yasalgan leksemalar; v) o'zlashmalardan turkiy qo'shimchalar yordamida hosil qilingan so'zlar. Yodnoma tilida jami 2031 ta leksema qo'llangan bo'lib, shundan 1076 tasini sof turkcha, 590 tasini arabcha, 310 tasini fors-tojikcha o'zlashmalar va o'zlashmalardan turkiy affikslar orqali yasalgan so'zlarni tashkil etadi.

O'zbek tili genetik jihatdan turkiy tillar oilasiga kiradi va bu til uchun turkiy tillarning negiz leksikasi qadimiy asos hisoblanadi. Shu sababli ham o'zbek tili so'z boyligining qadimiy o'z negizi aslida turkiy tillarning o'ziniki bo'lgan tub turkiy so'zlardan iborat. Ko'rinadiki, tub so'zni belgilovchi asosiy mezon, birinchidan, bu so'zning genetik jihatdan o'sha tilniki ekanligi, ikkinchidan, uning qadimiy davrlarga oidligidir [3].

Ma'lumki, obida tilida iste'molda bo'lgan tub turkiy so'zlarning tarixi ko'hna yozma manbalarga borib taqaladi. Zero, mazkur yodnomalar umumxalq tilining muhim xususiyatlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, xalqning qadimgi madaniyatini aks ettirgan. Ular orqali xalqimiz tarixi va tilimiz taraqqiyotiga oid ko'pgina qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lamiz [16]. Shu nuqtai nazardan, masnaviy so'z boyligini qadimgi turkiy til va eski turkiy tilning dastlabki yodgorliklarida qayd etilgan leksik birliklar bilan qiyosiy o'rganish asardagi arxaik hamda XIV asr oxiri va XV asr boshlari uchun xarakterli bo'lgan so'zlarni aniqlashda yordam beradi.

Til tizim sifatida uzluksiz harakatda, rivojlanishda bo'lib turadi, bu uning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqadi: til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur o'rtasidagi ikki tomonlama aloqadorlik ularning bir-biriga ta'sirini belgilaydi – jamiyatda yuz beradigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiy va ma'rifiy sohalaridagi islohotlar tilning lug'at boyligida yangi-yangi so'z va atamalarning vujudga kelishini, ayni paytda, ma'lum leksemalarning eskirib, tarixiy kategoriyaga aylanishini taqozo qiladi [5].

So'z turmushdagi yangiliklarni, kishilar faoliyatini, voqea-hodisalarni ifodalovchi vositadir. Shuning uchun ham so'z tilda o'ziga xos xususiyatlar, o'zgarishlar va taraqqiyotlarga boy alohida bo'limdir. Tilda hayot uchun zarur turli yangi so'zlar paydo bo'la borganidek, turmush uchun keraksiz so'zlar iste'moldan chiqib ketadi. Eskirganligi, yaroqsizligi tufayli iste'moldan chiqqan so'z va iboralar lingvistikada arxaizm deb ataladi [7].

Kuzatishlarimiz "Gulshan ul-asror" leksikasida quyidagi eskirgan so'zlar, ya'ni arxaizmlar [8] qo'llanishda bo'lganligini ko'rsatadi: ay= -"aytmoq", aryg-"toza", ayog-,ayaq-"oyoq", ayru-"o'zga,boshqa", alar-"ular", al-"el", anga-"unga", al-"qo'l", andin-"undan", andoq-"shunday", asru-"juda ko'p,ortiq,talay", achiq-"achchiq", ayur=—"ayirmoq", beg-"bek, hukmdor", belguluk-"ochiq-oydin,aniq", bikin-"kabi", borch-"barcha", borch-"boricha", dagul-"emas", gezlaguvchi-"yashiruvchi,berkituvchi", dog-"i-yana, tag'in,hamda", durur-"turur, ...dur", yovuq-"yaqin", yovush=—"yaqinlashmoq, yetishmoq", yondash=—"yonma-yon o'tirmoq", yormon=—"chirmashmoq", yorliq-"amr, farmon", yog'iy-"dushman", yoy=—"tarqatmoq", yoy-"kamon", ilik-"qo'l", itik-"o'tkir,keskir", iya,iyya,iyo-"ega",yibor=—"yubormoq,jo'natmoq", yig'och-"yog'och,daraxt", yilon-"ilon", yir-"ashula,qo'shiq,jir", yipak-"ipak", yip-"ip", yiroq-"uzoq,yiroq", kebak-"kepak", ko'k-"osmon", qulovuz-"yo'l boshlovchi", qursog'-"qorin", qatla-"marta,karra", qiyot-"o'zbek qabilalaridan birining nomi", ovuch-"hovuch,changal", oyitti-"aytdi", oncha-"ancha", oning-"uning", oni-"uni", ochun-"dunyo,jahon,olam", par-"qanot,pat", tamug'-"do'zax", tuzluk-"to'g'rilik, halollik"

Zikr etilgan misollardan ayonki, arxaizmlar til tarixi bilan o'zaro aloqador bo'lib, uning ichki taraqqiyoti mobaynida turli shakllarda ko'zga tashlanadi. Demak, eski so'zlarni tadqiq etish o'sha davrdagi urug', qabila va xalqlarning o'zaro munosabatini o'rganish, leksemalarning kelib chiqishini aniqlashga yordam beradi.

Tilshunoslikda muayyan tilga xos so'z yasash usullari bilan so'z yasovchi vositalar yordamida yangi so'zlar hosil qilish til leksikasining boyishidagi eng yetakchi yo'llardan biri sifatida talqin qilinadi. Ichki resurslar asosida so'z yasash, asosan, tilning o'ziga xos so'z yasash usullariga tayangan holda so'z yasovchi vositalar ko'magida amalga oshadi [15].

Yozma yodgorliklar tilidagi so'zlar qat'iy qonunlar asosida yasalgan. Yasama so'z ma'no jihatdan o'ziga bog'liq bo'lgan o'zakdan, o'sha so'zning har qaysi emas, aynan tutash ma'noli semasidan urchiydi. Agar yasama so'zning morfem tarkibi chuqur tahlil qilinsa, o'sha ildizga yetib boriladi [10].

Tilda affiksatsiya yo'li bilan yangi so'zlar hosil qilish eng faol usullardan sanaladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, masnaviy so'z boyligida ham tub o'zakdan turkiy qo'shimchalar [9] orqali yasalgan

1)-chyi-chi affiksi vositasida otlardan ot yasaliishi.Bunda ushbu qo‘shimcha yordamida kasbkor, yumush egasi ma’nosini anglatuvchi leksemalar hosil qilingan: bo‘zchi-“bo‘z to‘quvchi” < bo‘z –“mato turi”, ko‘zchi-“ko‘ruvchi” < ko‘z-“ko‘rish organi”, sotiqlchi-“sotuvchi” < sotiql-“sotuv” , oshlug‘chi-“yegulik yeyuvchi” < oshlug‘-“yegulik” , yo‘lchi-“yo‘l yuruvchi” < yo‘l-“yo‘l”.

a) otidan ot yasalishi: oshlug' – "oziq-ovqat, yegulik" < osh – "ovqat", qullug' – "qullik" < qul – "banda, xudoning quli", belguluk – "belgili" < belgu – "belgi, ishora", erlik – "erkaklik" < er – "erkak", yigitlik – "yigitlik" < yigit – "yigit", kechalik – "kechalik" < kecha – "o'tgankun", tiriklik – "tiriklik" < tirik – "hayot, yashash", yamoqlik – "yamoqlik" – yamoq – "yamoq, yirtiqning ustiga mato qo'yib tikilishi", gumonlik – "gumonlik" < gumon – "gumon, shubha", boshliq – "boshli, boshlik" < bosh – "bosh", ayoqlik – "oyoqlik" < ayoq – "oyoq", munluq – "munglik, xafalik" < mun – "mung, xafa"

b) sifatdan ot yasalishi:sifatlyq-“sifatlik” < sifat-“o‘xshash”,havodorlyq-“havodorlik”<havodor-“havodor”, sazovorlyq-“sazovorlik”<sazovor-“loyiq”,hushyorlik-“hushyorlik” <hushyor-“hushyor”, bedorlik-“bedorlik”<bedor-“uyqusiz”, ravonlik-“ravonlik, to‘g‘riлик” <ravon-“to‘g‘ri.tekis”,tuzluk-“to‘g‘riлик”<tuz-“to‘g‘ri”, rostlyq-“rostlik” <rost-“to‘g‘ri”,achig‘lyg‘-“achchiqlig‘”<achig‘-“achchiq”, qarilyq-“qarilik” <qari-“yoshi ulug‘ inson”, yamanlik-“yomonlik”<yaman-“yomon”.

3)-k/-aq/-ag*// -ig*// -ыг*// -ыq/-ik// -ug*// -üq/-ük affikslari fe'ldan harakat natijasi, holati, joy va qurolini anglatuvchi ot yasagan: bilig-“bilim” <bil=“bilmoq”, tuzuk “tuzuk” <tuz =“tuzmoq”, O'ksuk ”o'ksuk, qiyinchiliklar qurshovida”<o'ksu=“o'ksumoq, xafa bo'lmoq”, tilak-“tilak, istak”<tila=“tilamoq, istamoq”, so'haq-“suyak”< so'ha=“oxirlamoq”, emgak-“qiyinchilik”<emga=“zahmat chekmoq”, ölüg-“o'lik”< öl=“o'lmoq”, tirnoq-“tirnoq”<tirna=“tirnamoq”;

4)-quchi/-g‘uchi/-güchi/-küchi affikslari fe‘ldan shaxs ma‘nosidagi ot yasagan: bilg‘uchi-“biluvchi (olloh nazarga tutilmoqda)” bil=“bilmoq”, sözlägüchi “so‘zlovchi” <sözlä= “so‘zlamog”, gizlägüchi “yashiruvchi, berkituvchi” < gizlä = - “yashirmog, berkitmog”, sotquchi “sotuvchi” < sot= “sotmog”, qotg‘uchi- “aralashtiruvchi” < qot= “aralashtirmog”, ötküchi- “o‘tuvchi (dunyodan o‘tuvchi, yo‘lovchi)” < öt= “o‘tmog”, sevgüchi- “sevuvchi” < cev= “sevmog”;

5)-ch (-nch) affiksi fe'ldan anglashilgan ish-harakatning natijasini, nomini bildiruvchi ot hosil qilgan: tinch-“tinch, osoyishta”<tin = -“tinmoq”;

6)-la/-lā affiksi asosan ot bilan (qisman) sifatdan ishning o‘zakdan anglashilgan predmet vositasida bajarilishi, muayyan holat va belgiga ega bo‘lish kabi ma’nolardagi fe’llar yasaydi:

a)otdan fe'l yasalishi: sözlä=-“so‘zlamoc”< söz-“so‘z”, yüklä=-“yuklamoc”<yük-“yuk”;

b) sifatdan fe'l yasalishi: gizlä=-“berkitmoq, yashirmoq”< giz”berk, yashirin”;

7)-da/-dä// -ta/-tä affiksi -la/-lä affiksining fonetik varianti bo'lib, ba'zi so'zlardan fe'l hosil qilgan [7]: alda=-“aldamoq” <al-“hiyla”, ista=-“istamoq” <is-“hid”, ündä= -“undamoq”< ün-“tovush.sas”;

8) quyidagi affiksalar kammahsul bo‘lib, ular ba’zi fe’llardan ot yasash bilan chegaralanadi:

a)-(u)t/-(ü)t: ögüt-“nasihat” < ög=“maqtamoq”;

b)-ын/-in// -un/-ün: түгүн-“tugun” < түг=“tugmoq”, екин-“ekin” < ек=“ekmoq”;

v)-g'an/-qan// -g'yn/-qyn// -g'un/-qun: qorg'an- "qo'rg'on" < qor-qur= "qurmoq";

g)-ach/-äch: уыг'ach-“daraxt” < уыг' = “to‘siq, g’ov bo‘lmoq”;

d)-ma/-mä:sürmä-“surma” < sür=“surmoq”;

ye)-lan: qaplan-“qoplon” < qap =-“tutmoq” (ESS,I,85);

yo)-m:qadam-“oyoq bosimi”<qada=-“qadamoq”:

10)-g’/-g’/-q/-k’/-big’/ig’/-ıyq/-ik’/-ug’/-üg’/-uq’/-ük affiksi fe’ldan o’zakda anglashilgan ma’noga taalluqli belgi xususiyatiga egalik tushunchasini bildiruvchi sifat hosil qilgan:achyig’-“achchiq”< ачы=“achimoq”(DTS, 4), savuq-“sovuq”< savu=“sovimoq”, yarag’-“yarog’,asbob”< yara=-“yaramoq, kerak bo’lmoq”.

Har bir til soʻz yasash, uni yangi maʼnolarda qoʻllash kabi ichki imkoniyatlaridan tashqari, tashqi omillar taʼsirida, yaʼni boshqa tillardan lisoniy birliklarni qabul qilish orqali ham rivojlanib, boyib boradi. Albatta, bu jarayon muayyan til qonuniyatlari asosida amalga oshadi. Jahonda hech bir til yoʻqki, uning lugʻati faqat oʻz soʻzlaridan tashkil topgan boʻlsin. Boshqa tillardan olingan soʻzlar yo oʻsha tilda oʻz shaklini qanday boʻlsa, shundayligicha saqlaydi yoki uning leksik tizimi, tabiati, grammatik qurilishi, soʻz yasalishi va imlo qoidalariga uygʻunlashadi [12].

O'zbek adabiy tili tarkibidagi so'zlar tarixiy shakllanishi jihatidan faqat turkiy tillarga xos bo'lmay, balki fors-tojik, arab, mo'g'ul, rus tillaridan, shuningdek, uyg'ur tili orqali xitoy tilidan kirib kelgan leksemalardan iborat. O'zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichiga nazar solsak, mazkur so'zlar turli davrlarda xilma-xil ijtimoiy sabablar bois o'zlashganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, fors-tojikcha istilohlar o'zbek va tojik xalqlarining qadimdan yonma-yon yashab, bir-biri bilan ijtimoiy va madaniy munosabatda bo'lib kelganligi natijasida, arab leksemalari esa, asosan, kitobiy til va fors-tojik tili, shuningdek, qisman og'zaki nutq orqali kirib kelgan.

1)-la/-lä qo'shimchasi o'rganilayotgan manbada ot so'z turkumiga oid o'zlashmalardan buyruq fe'lini yasagan:

bog'la=“bog'lamoq” <bog'–“bog', bog'lam”, chog'la=“chog'lamoq, vaqtini chog'(yaxshi) o'tkazmoq” <chog'–“chog', vaqt”;

2)-siz/-siz/-suz/-süz. Mazkur affiks asosan o'zlashma otlarga qo'shilib, qo'shimchasi otlardan o'zakdan anglashilgan ma'noga ega emaslikni ifodalovchi sifatlarni hosil qilgan: ibratsiz–“ ibratsiz–“ibratsiz”<ibrat–“ibrat, o'rnak”, vositasiz–“vositasiz”<vosit–“o'rta, o'rtadagi”, foydasiz–“foydasiz”<foйда–“foйда”;

3)-lyg'/-lig'/-lyq/-lik'/-lug'/'lüg'/'luq'/'lük affikslari ishtirokida, asosan, sifatdan o'zi qo'shilgan o'zakdan anglashilgan narsaga egalik ma'nosini bildiruvchi mavhum otlarni ifodalovchi leksemalar hosil qilingan: *Bir necha kun dunyoda jon xushligi, Saltanat erur bu jahon xushlig'i*. 16A-4

Keltirilgan misollardan va obida leksikasini o'rganish mobaynida shu narsa ayon bo'ldiki, masnaviy tilida turkiy hamda o'zlashma lisoniy birliklardan yangi so'zlar hosil qilishda ot yasovchi -chy/-chi, -quchi/-g'uchi/-güchi/-küchi, -lyg'/-lig'/-lyq/-lik'/-lug'/'lüg'/'luq'/'lük affikslari faol ishtirok etgan. Bu esa o'z navbatida ushbu qo'shimchalarning XIV-XV asrlarda sarmahsul affikslardan bo'lganligini ko'rsatadi. Obida lug'at tarkibining o'z qatlami tub(o'zak) so'zlar, ular yordamida yasalgan leksemalar hamda o'zlashmalardan turkiy affikslar orqali hosil qilingan terminlardan iborat bo'lib, ular yodnoma so'z boyligining asosini tashkil etgan. Bu esa, o'z navbatida, asar tilining rang-barangligini ta'minlagan. Demak, leksik fondning shakllanishi va boyib borish jarayonini kuzatishda, o'zga tillarning turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili rivojida tutgan o'rnini aniqlashda, tildan tashqari – ekstralingvistik omillarni to'g'ri belgilashda ko'hna yodnomalar til xususiyatlarini atroflicha tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Haydar Xorazmiy. “Gulshan ul-asror” (Mahzan ul-asror) qo'lyozmasi. O'zRFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. № 37.
2. Бафоев Б.Навойи асарлари лексикаси.-Т.:Фан, 1983.
3. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари.-Т.:Фан, 1985.
4. Дадабоев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XVI вв.-Т.:Ёзувчи,1991.
5. Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили.2-қисм.-Т.:Тошкент давлат педагогика университети,2004.
6. Мамажонов Г. Ўзбек лексикаси тараққиётининг баъзи масалалари.-Т.:Фан, 1978
7. Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк. -Т.: Фан, 1959
8. Наджиб Э.Историко-сравнительный словарь тюркских языков XIV века: по материалам “Хосрау Ширин” Кутба. -М.: Наука, 1979
9. Севортян Э. Аффиксы словообразования в азербайджанском языке. Опыт сравнительного исследования.-М.:Наука,1966
10. Содиков Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилининг юзага келиши ва тикланиши.-Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006
11. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш.Ҳозирги ўзбек адабий тили.-Т.:Ўзбекистон, 1992.
12. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи.-Т.: Ўқитувчи, 1995
13. Уфимцева А. Опыт изучения лексики как системы.-М.: Издво АН СССР, 1962
14. Холманова З.”Бобурнома” лексикаси.-Т.: Фан, 2007.
15. Йўлдошев И. Ўзбек китобатчилик терминологияси.-Т.: Фан, 2004.-Б.99.
16. Алиев А., Содиков Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан.-Т.: Ўзбекистон, 1994, 1994.-Б. 115.
17. Ўзбек адабий тилининг тараққиёти. Уч жилдли. -Т.: Фан, 1991.-Б.128

UDC 811.161.1+811.512.164]’342-115

THE ROLE OF NEGATIVE TRANSFER IN COMPARATIVE AND CONTRASTIVE PHONETICS

H.B.Temirova, PhD student, Termez State University, Termez

Annotatsiya. Bizga ma'lumki, qardosh tillarni bir-biriga solishtirganda, bu tillar o'rtasidagi ijobiy transfer salbiy transferdan ko'ra ko'proqdir. Buning sababi, ularning bir bobo tildan kelib chiqqanligidir. Shu sababli, bu tillarning turli lingvistik sathlarida o'xshashliklar mavjud va qardosh